

## **ISHLAB CHIQRISH MUHITIDA INSON OMILINI HISOBGA OLGAN HOLDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Jasmina Lochinbek qizi To‘lasheva**

Andijon mashinasozlik instituti 2-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonida inson omili, ishchilarning hayoti uchun xavfli holatlar, insonlar bilan bog‘liq jarayonlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflar, xodimlarni xavflardan xabardor qilish va shaxsiy himoya vositalari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** ishlab chiqarishdagi xavflar, inson omili, ishchining tajribasi, komfort sharoit, himoya vositalari, qo‘shimcha dam olish vaqtlari.

## **WAYS TO INCREASE LABOR SAFETY TAKING INTO ACCOUNT THE HUMAN FACTOR IN THE WORKING ENVIRONMENT**

### **ABSTRACT**

This article provides information about the human factor in the production process, dangerous situations for the life of workers, risks that may occur in processes related to people, informing workers about risks and personal protective equipment.

**Key words:** industrial risks, human factor, worker's experience, comfort conditions, protective equipment, additional rest periods.

Bugungi kunda ishlab chiqarish va sanoat kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan insonlarning hayot tarsi o‘zgarib bormoqda. Ularning bu jarayonlardagi faoliyatini to‘laligicha xavfsiz deya olmaymiz. Buning eng asosiy sababi inson faktori qatnashgan har qanday jarayonda xavflar

mavjud. Shularni inobatga olgan holatda ishlab chiqarish jarayonlarida ishchilarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, ishchilarning ish faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar, ishchilarning hayoti uchun xavfli bo‘lgan jarayonlar, xavflar yuzaga kelganda qanday ishlar olib borilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Chunki har qanday holatda ham inson hayoti va xavfsizligi birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish jarayonlarida ishchilarning xavfsizligini ta‘minlashda qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ham insonlarning ish jarayonidagi xavfsizlik masalalariga yanada jiddiy e‘tibor qaratildi. Buning eng asosiy sababi, ishlab chiqarish jarayonlaridagi baxtsiz xodisalar natijasida kundan-kunga ko‘plab insonlarni jarohat olayotgani va ayrim holatlarda ishchi xodimlarning o‘limi bilan tugayotganidir.[1]

Hayot faoliyati xavfsizligi insonni xavfdan himoyalashga qaratilgan bo‘lsada, ko‘pchilik xollarda insonning o‘zi potentsial xavfni tug‘diruvchi, tashuvchi hisoblanadi. Qisqa aytganda, inson muhitga ta‘sir etadi, uni o‘zgartiradi, natija esa o‘gir oqibatlariga olib kelishi bilan tugashi mumkin buladi. Shu sababli, «inson-texnik tizim» sistemasi xavfsiz faoliyatda bo‘lishi uchun inson va texnik tizimni tashkil etuvchi barcha elementlarning ko‘rsatkichlari o‘zaro muvofiqlikda bo‘lishi talab etiladi. Agar bunday muvofiqlik («kelishiluvchanlik») bo‘lmasa quyidagi ko‘rinishdagi ko‘ngilsiz hodilar yuz beradi: insonning ish qobiliyati susayadi, umumiy va kasb kasalliklari ko‘payadi, avariyaalar, yonginlar, portlashlar sodir bo‘ladi, ishlab chiqarish jarohatlari yuzaga keladi.

Inson o‘zidagi tabiiy analizatorlar, ya‘ni sezgi a‘zolari orqali atrof-muhit bilan bevosita bog‘lanishda bo‘ladi. Ushbu sezgi a‘zolarining xarakteristikasini o‘rganish xavfsizlik sistemasini takomillashtirishda muxim rol o‘ynaydi. Bunday sezgi a‘zolariga ko‘rish, eshitish, titrashni sezish, haroratni sezish, og‘riqni sezish, ta‘m va xidni sezish, organik sezgi va harakat analizatorlarini misol keltirish mumkin.[2]

Yuqorida ta’kidlangan sezgi a’zolari ma’lum xarakteristikaga ega bo’lib, muhit faktorlarining keskin o’zgarishi ushbu analizatorlarning ish faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Natijada, turli xil kasb kasalliklari, jarohatlanishlar kelib chiqadi. Masalan, insonning eshitish a’zolari 16 Gts dan 20000 Gts gacha bo’lgan tovush chastotalarini eshita oladi. 16 Gts dan kichik bo’lgan infratovushlar ham, 20000 GTS dan yuqori bo’lgan ultratovushlar ham insonga salbiy ta’sir etadi.[3]

Yuqorida ta’kidlangan, sezgi a’zolari va analizatorlaridan tashqari, faoliyat xavfsizligini ta’minlashda insonning shaxsiy fazilatlarini, jumladan e’tibor, fikrlash, idrok qilish, emotsiya, xotirlash, tasavvur etish, o’ylash ham muhim rol uynaydi. SHu sababli, shaxsiy xavfsizlik rejimi, inson fazilatlarining faoliyat xavfsizligiga ta’siri kabi masalalarni o’rganish ham talab etiladi.

Inson omili bilan bog’liq bo’lgan xavfli vaziyat va jarohatlarni quyidagi uch darajaga bo’lish mumkin:

- shaxs (individual) darajasi (organizmning tug’ma yoki keyin o’zlashtirilgan vaqtinchalik yoki doimiy ruhiy va fiziologik xarakteristikalarini).
- muhit darajasi (mehnat sharoitlari, kollektiv munosabatlarning buzilishi, xavfsiz ish usullari haqidagi yo’riqnomalarning sifati pastligi, oilaviy va moddiy tashvishlar).
- jamiyat darajasi (kasbiy tavakkal, uning oqibatlarini haqida yetarlicha xabardor bo’lmashlik tarmoqda yoki regionda mehnat xavfsizligi masalalarini yaxshi tashkil etilmaganligi). [4]

Ishlab chiqarish faoliyatida inson organizmining o’ziga xos tomonlari va tashqi muhit omillari bir-biri bilan uzviy bog’lanishda bo’ladi. SHuning uchun xavfli vaziyatlarni tahlil qilishda "Inson-texnik tizim" sistemasini birgalikda ko’rib chiqish kerak bo’ladi. Shu narsa aniqlanganki, jarohatlanishning yuqori darajasi yosh hodimlarda va ish staji 10-15 yillik hodimlarda bo’lar ekan.

Yoshlik omili va kasbni egallashda kasbiy mahoratning yetishmasligi natijasida yuqori darajadagi jarohatlanish ishning birinchi yiliga to’g’ri keladi. Bu hodimda malakaning yetishmasligi, bilimining kamligi, xavfli vaziyatni oldindan ko’ra

bilmaslik, yo‘l qo‘yilgan xatoning oqibatlarini aniqlay olmaslik, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilolmaslik sababli bo‘ladi. Staj ortib borishi bilan jarohatlar soni kamayib boradi.[5]

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning xavfsizligini oshirish uchun dam olish xonalari, ish turiga qarab shaxsiy himoya vositalari, ishning turiga qarab qo‘shimcha dam olish vaqtlari belgilash zarur. Yana shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ishlab chiqarishda inson omili natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning eng asosiy sabablaridan biri insonning ruhiy holatidir. Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayonida ishchilar bilan bog‘liq xavflarni oldini olish uchun xodimlarning ruhiy holatini ham nazorat qilib borish zarur.

### **XULOSA**

Ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda inson omili bilan bog‘liq bo‘ladi. Biz qanchalik harakat qilmaylik ba‘ribir xavf darajasini 0 foizga tushura olmaymiz. Chunki barcha jarayonlarda hech bo‘lmasa yashirin xavflar mavjud bo‘ladi. Shu sababli ham biz faqatgina ishlab chiqarish jarayonida ishchilarni mavjud bo‘lgan, oshkora va yashirin xavflar haqida doimo ogohlantirib borishimiz kerak. Bundan tashqari xavf yuzaga kelgan holatlarda qanday harakatlarish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar haqida oldindan ogohlantirib turishimiz kerak.

Ishchilarning yo‘riqnomalardan o‘z vaqtida va belgilangan tartib qoidalar bo‘yicha o‘tishlarini ta‘minlash ham jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni birmuncha kamaytiradi.

Ishchi hodimlar uchun qo‘shimcha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilishi ham maqsadga muvofiqdir. Yana shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning sabablaridan biri ishchilarning ruhiy holati bo‘lganligi uchun ularning ruhiy holatiga ijobiy ta‘sir e‘tuvchi qo‘shimcha mashg‘ulotlar va hordiq chiqarishlari uchun sharoitlar yaratib berilishi zarur. Shularga amal qilingan holatda xavflarning sodir bo‘lish miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. 92-94b
2. Ibragimov E.I, Gazinazarova S, Yuldashev O.R. “Mehnat muhofazasi maxsus kursi” Toshkent, 2014. 61b
3. Qudratov A.Q, G‘aniev A, Yormatov G‘.Y. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”. Ma‘ruza kursi.. –Toshkent: “Aloqachi”, 2005. 233-235b
4. Yo‘ldoshev O.R, Raximov O.D, Xo‘jaqulova R.T, Xasanova O.T. “Mehnatni muhofaza qilish”. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Mehnat”, 2005. 127-128b
5. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) – Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti.